

Nasirdinov Oybek Abdubannonovich,

Doctoral student of Kokan State Pedagogical Institute;

### **LEXICAL AND COMPOSITE SEMANTIC - AS TYPES OF SEMANTIC**

Abstract: Each language unit has its own importance in linguistics, and the field of semasiology is one of these fields. Semasiology is also called semantics. Since semantics studies the meanings of words and phrases in the text and outside the text, the issues of semantic analysis are of great importance in linguistics.

Key words: semantics, denotative, connotative, language segments

Nasirdinov Oybek Abdubannonovich,

Qo'qon davlat pedagogika instituti doktoranti;

### **LEKSIK VA TARKIBIY SEMANTIKA – SEMANTIKANING TURLARI SIFATIDA**

Annotatsiya: Har bir til birliklari tilshunoslikda o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, semasiologiya sohasi ham shunday sohalardan bir hisoblanadi. Semasiologiya – semantika deb ham ataladi. Semantika so'z va iboralarning matndagi va matndan tashqari ma'nolarini o'rganganligi bois, tilshunoslikda semantik tahlil masalalarining ahamiyati katta.

Kalit so'zlar: semantika, denotativ, konnotativ, til segmentlari

#### **KIRISH**

Har bir tilning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ularning til xususiyatlari madaniyat bilan bog'liqdur. Shu o'rinda ayta olamizki, millatning umumiy dunyoqarashi, tilshunoslikdagi o'ziga xoslikni namoyon eta oladi.

Semantika yoki semasiologiya tilshunoslikda so'zlar va iboralarning ma'nosini o'rganadi, ytahlil qiladi. Ya'ni nutq jarayonida yoki yozayotganda so'zlar qanday ma'noni anglatishini o'rganadigan fan sohasi hisoblanadi. Ushbu soha tilshunoslik faniga dastlab, Mishel Breal tomonidan 1833-yilda alohida soha sifatida fanga kiritilgan.

#### **MATERIALLAR VA METODLAR**

Semantika sohasining maqsadi ma'nolarni semalar yoki semantik xususiyatlar deb ataladigan kichik birliklarga ajratish va bu so'zlarning ma'nosini segmentlarga ajratish, shuningdek, o'xshash ma'noga ega so'zlarni va qarama-qarshi ma'no so'zlarini farqlash imkonini beradi. Boshqa tarafdin tahlil qiladigan bo'lsak, lingvistik semantika so'zlarning denotatsiyasi va konnotatsiyasini o'rganishga mas'uldir, xabar obyektiv ifoda etilganda, uning ma'nosi denotativ deb aytiladi va obyektiv aloqaga imo-ishora yoki intonatsiya orqali ba'zi shaxsiy baho qo'shilsa, uning ma'nosi aytiladi va bu konnotativ hisoblanadi.

So'zlarni o'rganishni quyidagilarga bo'lish mumkin:

1. Sinonimiya - bir xil belgini bir nechta belgi bilan ifodalash mumkin bo'lganda paydo bo'ladi, masalan: qulash, qulash, qulash va boshqalar.
2. Antonimiya - xarakterlanadi, chunki belgi boshqasiga nisbatan qarama-qarshi ma'noga ega, masalan: sovuq - issiq.
3. Polisemiya - ishora qiluvchi bir nechta ma'noga to'g'ri kelganda paydo bo'ladi, agar oyoq so'zi bo'lsa, u hayvonga ham, mebelning oyog'iga ham mos keladi.
4. Omonimiya - bu ma'nolarning o'xshashligi, omonim so'zlar yozishda turlicha bo'ladi, masalan: had (have fe'l) va tube (silindrsimon ob'ekt).

So'z ma'nolarini tahlil etar ekanmiz ularning semantic ma'nosi haqida ham to'htalib o'tmog'imiz darkor. Semantik maydon - bu sema (belgi) yoki lingvistik ildiz deb ataladigan umumiy funktsional asosiy birlikka ega bo'lganligi sababli o'xshash ma'noga ega so'zlar yoki iboralar to'plamidir. Semantic maydonda turuvchi so'zlar aynan bir hil sohalarda ishlatiladi. Masalan, bog'dorchilik sohasiga oid semantik maydon so'zlari faqatgina shu sohada ishlatiluvchi leksemalar hisoblanadi.

## MUHOKAMA VA IZLANISHLAR

Tildagi nominativ birliklarning ma'no tuzilishini o'rganishda tilshunoslikda semantikaning konnotativ jihati tushunchasiga alohida e'tibor

beriladi. V.N.Teliya ta'rificha, konnotatsiya bu til birliklari semantikasiga uzual va okkazional ravishda kiradigan, nutq sebyektining borliqni jumlada ifodalashda uning ayni shu borliqqa bo'lgan hissiy-baholash va stilistik munosabatini ifodalaydigan hamda shu axborotga ko'ra ekspressiv qimmat kasb etadigan mazmuniy mohiyatdir.

Til mohiyati, ichki qurilishi jihatdan denotativ (atash, nomlash, nominativ) va konnotativ (emotsional-ekspressiv) ma'no bildirib shu asosda informatsiya (aloqa) vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki dualizmi, bir tomondan, obyektiv borliqni aks ettirgan tafakkur shakli; ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatidan kelib chiqadigan mustaqil tizim ekanligi bilan chambarchas bog'liq. Agar tilning atash vazifasi uning tafakkur shakli, tushunchalarni qolipga soluvchi bir vosita ekanligi bilan bog'liq bo'lsa, uning ekspressiv vazifasi tilning mustaqil sistema ekanligi, elementlarning mohiyati ularning ichki munosabatlari asosida ochilishi mumkinligi bilan bog'liq. So'z semantikasida denotativ ma'no bilan birga konnotativ ma'no ham mavjud. Konnotativ ma'no so'z semantikasidan denotativ ma'no ajralgandan keyin hosil bo'lgan ayirmaga teng. O.S.Axmanovanning ta'kidlashicha, so'z semantikasida 2 xil konnotatsiya mavjud: 1) ingerent konnotatsiya - so'z matndan tashqari holatida unga xos bo'lgan konnotativ ma'no  
2) adgerent konnotatsiya-so'zda ma'lum kontekstda paydo bo'ladigan konnotativ ma'no kabilar.

Nutqdan tashqarida, ma'lum bir matnsiz ham so'zning semantik tarkibiga kiruvchi va paradigmatic munosabatlar bilan belgilanadigan konnotativ ma'no ottenkalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1)so'zlovshining ijobiy-neytral-salbiy munosabati ifodalanadigan so'zlardagi ma'no ottenkalari, masalan, chehra yuz, bashara, oras, bet

2)munosabat darajasi, miqdoriga ko'ra farqlanadigan ottenkalar, masalan, chiroyli-go'zal-suluv-hushbichim, kelishgan.

3)soʻzning qoʻllanish doirasiga koʻra: ajab-ajib, doʻppi-kallapoʻsh va boshqalar.

Adherent konnotativ ma'no til elementining sintagmatik munosabatini oʻzgartirish asosida hosil boʻladi. (birikish potentsialini). Neytral konnotativ ma'noli soʻzlar kontekst ta'sirida u yoki bu konnotativ ma'nolarga ega boʻlishi mumkin. Jumladan, koʻchma ma'no soʻz semantik strukturasi buzish, undagi biror semani tushurish, ikkinchi semaning boʻrttirilishi asosidadur. Misol uchun “poʻlat” soʻzining denotativ ma'nosi metall qotishmasining bir turi ekanligi. Har bir predmet oʻzining ma'lum belgilari bilan xarakterlangani kabi “poʻlat” bizning ongimizda «mustahkamlik», «qattqlik belgilari bilan xarakterlanadi. Bu «poʻlat» soʻzining ichki konnotativ ma'nosini mana shu “qattqlik”, “mustahkamlik” konnotativ semalarni “metall qotishmasi” semasidan ajratib boshqa bir predmetga nisbatan berilsa, kuchli konnotativ koʻchma ma'no hosil boʻladi: poʻlat iroda. Yuqoridagi “poʻlat iroda” birikmasida “poʻlat” soʻzining tildagi sintagmatik munosabati buzilgan. Til bosqichida birikuv yoʻli bilan metall nomlarini ifodalovchi otlar faqat shu metall dan yasalishi mumkin boʻlgan predmetlar nomini anglatuvchi otlar bilan birika oladi: poʻlat pichoq, poʻlat sandiq kabi. “Poʻlat iroda” birikmasida esa bu soʻz abstrakt tushunchani ifodalovchi soʻz bilan birikkan. Ushbu berilgan misollardan kelib chiqib ayta olamizki, semantika soʻz va iboralarning gapdagi va shu gapdan tashqari maʼnolarini ifodalaydi.

Leksik va tarkibiy semantikaga keladigan boʻlsak, leksik semantika soʻzlarni u paydo boʻladigan kontekst bilan hech qanday aloqasiz oʻrganishdan iborat. Oʻz navbatida, strukturaviy semantika, nomidan koʻrinib turibdiki, bunday ma'nolarni tushunish uchun elementar birliklarni qurish va tahlil qilishdan iborat.

## XULOSA

Xulosa qilganda, semantika tilshunoslikning asosiy sohalaridan bir boʻlib, unda har bir konsept oʻziga hos tarzda oʻrganiladi va semantic maydonlarga

ajratiladi. Soʻz va atamalarni semantik maydonlarga ajratish, shu soʻzlarning oʻrganilish darajasini osonlashtiradi. Bunda umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda mos birliklarni toʻgʻri tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik maʼnolar asosiy hal qiluvchi rol oʻynaydi. Agar soʻz – bu til birligi boʻlsa, u holda matn – kommunikatsiya yaʼni aloqa, fikr almashinuvi birligi hisoblanadi deya olamiz. Chunki soʻzlar muayyan maʼnoga, matnlar esa muayyan mazmunga ega.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Lingvokulturologiya, maʼruza matnlari, **DARVISHOV IBROHIM OʻRMONOVICH. Namangan 2020**
2. Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.. 2013.
3. Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально – культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2010. – С. 25.
4. Mashrabovich, Y. E. (2022). THE DEGREE OF ANTHROPOCENTRICITY OF TERMS RELATED TO EDUCATION AND UPBRINGING IN TERMINOGRAPHIC RESEARCH. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 6, 174-177.
5. Юсуфалиев, Э. М. (2022). ТЕРМИНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРДА ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯГА ОИД ТЕРМИНЛАРНИНГ АНТРОПОЦЕНТРИКЛИК ДАРАЖАСИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(6), 279-283.
6. Yusufaliyev, E. (2021). TAʼLIMGA OID PEDAGOGIK TERMINLARNING LINGVISTIK TADQIQI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 2(6).